



Date: 15 June 2026

G'OYAVIY UYG'UNLIK VA BADIY TALQIN

NODIRA SAIDOVA

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Email id: saidova@mail.ru

Annotatsiya. Maqola taniqli adabiyotshunos olim Rahim Vohidovning boburshunoslik yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini yoritishga bag'ishlangan. Unda olimning qalamiga mansub "Boburnoma"da Shayx Sa'diy nafasi" nomli tadqiqot ishi atroflicha tahlil etiladi. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining o'ziga xos va nozik jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Mumtoz matn, lirika, mas'nu, boburshunoslik, sharhlash, tushunish, tadqiqot, talqin.

XX asrning 20–80-yillarida yurtimizda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, ijodi va boy merosini tadqiq etish yo'lida sezilarli ishlar olib borildi. Bu davrda boburshunoslik maktabiga asos solgan va bugungi kunda ham ilmiy izlanishlarini davom etib kelayotgan kekxa avlod olimlarining xizmatlari beqiyosdir.

Yurtimiz olimlari Bobur Mirzoga tegishli noyob qo'lyozmalarni izlab topish, ularni ilmiy muomalaga kiritish va tahlil qilish borasida ko'pgina tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Ushbu tadqiqotlar bugungi zamonaviy boburshunoslikning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, zahmatkash olimlarimiz X.Sulaymonov, P.Shamsiev, S.Azimjanova, A.Abdug'afurov, A.Qayumov, S.Hasanov, Z.Mashrabov, H.Qudratullaev, A.A'zamov, V.Rahmonov, X.Sultonov, H.Boltaboev, N.Otajonov, E.Ochilov, O.Jo'raboev kabi ko'plab adabiyotshunoslar Bobur Mirzo hayoti va ijodini o'rganish, qo'lyozma nusxalarini qidirib topish va ularni ilmiy iste'fodaga kiritish yuzasidan qator tadqiqot ishlarini amalga oshirgani, mazkur ishlar keyingi bu boradagi ilmiy izlanishlarga ham asos bo'lib xizmat qilayotganini mamnuniyat bilan ta'kidlash joiz. Mana shular qatorida Bobur adabiy merosi o'rganishga munosib hissa qo'shgan Rahim Vohidov nomini ham alohida sanash mumkin.Uning boburshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlari tahsinga loyiq. Olimning Bobur faoliyatiga oid tadqiqotlari ulug' shoirning shaxsiyati, lirik merosi hamda "Boburnoma" ga tegishli. Bobur lirik tadqiqiga bag'ishlangan "Bobur Mirzoning masnu' she'rlari", "Bobur Mirzo she'riyatida badiiy san'atlar", "Bobur Mirzo va naqshbandiylar", nasriga oid "Boburnomada" Shayx Sa'diy nafasi", "Ijodiy izlanishning shirin mevasi" kabi maqolari hamda uning dovyurak sarkarda, shijoatli davlat arbobi va nozik ta'b shoir sifatidagi betakror siymosiga oid kuzatishlari jamlangan "Biz bilgan va bilmagan Bobur" shu sohaning rivoji uchun xizmat qildi.



Jumladan, Rahim Vohidov “Guliston”dan keltirilgan she’riy matnning o’zga matn tarkibida berilishining sabablarini o’ziga xos talqin qiladi. Bu tahlil orqali, birinchidan, Boburning Sulton Mahmud Mirzoga munosabati oydinlashtirilsa, ikkinchidan, muallif sharq adabiyotida shakllangan an’anadan o’rinli foydalanganligini ko’rish mumkin. Ya’ni mumtoz nasr namunalarida “qissadan hissa” chiqarish maqsadida axloqiy mavzudagi she’riy matnlar muallif ilgari ilgari surmoqchi bo’lgan g’oyaning tasdig’i sifatida keltiriladi. Bunday xususiyat ko’proq pand-nasihat ruhidagi asarlarda kuzatiladi. Bobur o’z asarida ana shu an’anadan o’rinli foydalanganligini ko’rsatadi.

“Boburnoma”da Shayx Sa’diy nafasi” maqolasida tahlil va talqinga tortilgan ikkinchi she’riy matn “Bo’ston”ning “Jahondorlikda adolat va tadbirkorlik to’g’risida” sarlavhali birinchi bobidan olingan:

Jamshidi farruxsirisht
Ba sarchashmae bar sange navisht:
”Bar in chashma chun mo base dam zadand,
Biraftand to chashm barham zadand.
Giriftem olam ba mardiyu zo’r,
Valekin naburdem bo xud ba go’r.”

Mazmuni: Eshitdimki, qutlug’ tabiatli Jamshid bir buloq boshida tosh ustiga shunday deb yozgan ekan: bu buloq tepasida bizlar singari ko’p kishilar kelib o’lturdilar, ketdilar va yo’q bo’ldilar. Olamni mardlik va zo’rlik bilan oldik, lekin o’zimiz bilan go’rga eltmadik.

Olim dastlab mazkur she’rining “Bo’ston” nashrlari va “Boburnoma”dagi matndagi juz’iy tafovutlarga e’tibor qaratadi. Chunki tadqiqotchi tomonidan muayyan matnga doir asosli fikr – mulohaza taqdim etish uchun matn mukammal bo’lishi lozim. Olim nashrlardagi matnni qiyosiy o’rganadi: “Bo’ston” nashrlari va “Boburnoma”dagi matnda juz’iy farqlar ko’zga tashlanadi. Avvalo, bunday tafovutlar so’zlarni qo’shib yozishda namoyon bo’ladi. Shuningdek, “Boburnoma”dagi parchaning ikkinchi qatoridan “ba” (bar sange...) tushib qolgan. To’rtinchi qatorda “chun” o’rnida (chun-chashm...) “to” (tochashm) yozilgan. Uchinchi bayt “Bo’ston”ning ustod Sadriddin Ayniy nashrida tahrirga uchragan.”¹ Albatta, matnga bunday munosabat tahlil va talqinning mukammalligi uchun juda muhim sanaladi.

“Boburnoma”da keltirilgan yuqoridagi badiiy matn tahlili uchun olim Shayx Sa’diy asarini batafsil sharhu izoh, talqin-u tushuntirishlar bilan nashr ettirgan ustoz Sadriddin Ayniy tadqiqotlariga ham murojaat qiladi. S. Ayniyning e’tiroficha,

¹ Раҳмонов В.Мумтоз соҳир шеърят. Китобда: Ғарибнинг Андижонийдур. - Т.: “Шарқ” нашриёт – матбаа акцидорлик компанияси бош таҳририяти. 2008, 42-б.

² Ҳасанов С. Бобур шеърятдан. –Т.: 1982. 13-б.





asarning “Jahondorlikda adolat va tadbirkorlik to‘g‘risida” butun bobi davomida nohaq jangga, hazrati inson qonining bemavrid to‘kilishiga qarshi kurash g‘oyasi ustuvordir. Dunyoning barcha molu boyligi, savlatu saltanati insonning nohaq to‘kilgan bir tomchi qoni oldida qadrsiz hisoblanadi.

Ta’kidlash kerakki, mana shunday yuksak insonparvarlik g‘oyalarining sa’diyona nazokat, nafosat-u donishmandlik bilan pandu hikmat libosida badiiy ifodalanashi Bobur Mirzoga ma’qul tushgan. Bundan tashqari, Shayx Sa’diy asarlaridagi falsafiy-axloqiy masalalar nozikta’b va teran mushohada sohibi Bobur Mirzo dunyoqarish hamda hayot tarziga uyg‘un edi. Masalaning bu jihatidan e’tibor qaratgan adabiyotshunos olim shunday yozadi: “Bo‘ston”ning she’riy hikoyatidagi falsafiy g‘oya, dunyo taxtu baxtining bebaqoligi xususidagi shu olti satrda ifodalangan o‘tkir hayotiy haqiqat Sa’diyga qadar, uning zamoni va undan keyingi zarif insonlarga, jumladan, shoh Bobur Mirzoga ham kunday ravshan edi. Biroq ne qilsinki, uning qismati taxtga bog‘langan, qalbida tugib qo‘ygan behisob rejalarining yuzaga chiqishini o‘sha bebaqo uskunasiz tasavvurga sig‘dira olmas edi.”²

Demak, olim “Boburnoma”da keltirilgan she’riy matn tahlili va talqinida tarixiy voqea-hodisalarga tayanadi. 1501-1502-yillardagi ziddiyatli siyosiy-ruhiy olam qurshovida qolgan Boburga Shayx Sa’diy ma’naviy merosi bag‘ridagi o‘lmas g‘oyalar ruhiy madad bo‘lganligini ta’kidlanadi.

Rahim Vohidov bir maqola jarayonida “Boburnoma”da kelgan ikkita she’riy matn tahlil va talqini muallif shaxsi va davr voqea-hodisalari bilan qiyosiy tadqiq qiladi. Olimning o‘zi e’tiroficha, asarda turli munosabat bilan uch yuz yigirma ikki misra turkiy hamda forsiy tildagi she’rlar keltirilgan. Albatta, mazkur she’riy parchalarning tahlil va talqinlarida matnni tushunish uchun qulay bo‘lgan germeneytik vosita - matn sharhidan foydalaniladi. Bunday yondashuv esa Bobur ijodi oziqlangan manbalar hamda uning shaxsiy kechinmalari o‘rganish uchun juda muhim sanaladi. Rahim Vohidov esa bir maqola doirasida mana shunday maqsadni amalga oshirishga erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳмонов В.Мумтоз соҳир шеърят. Китобда: Ғарибнинг Андижонийдур. - Т.: “Шарк” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2008, 42-б.
2. Ҳасанов С. Бобур шеърятидан. –Т.: 1982. 13-б.
3. Воҳидов Р. Йиллардан қолган маънавий ёдгорлик... - Т.: “Зарқалам”. 2006.126-б.
4. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Т., “Zarqalam”, 2005. -122 b





5. Nodira, Saidova. "NAVOIY VA ILOHIYOT MUAMMOSI RAHIM VOHIDOV TALQINIDA." *Innovations in Technology and Science Education* 2.8 (2023): 681-689.
6. Rajabova, R. Z. EXPRESSIVENESS OF GENRE CHARACTERS INHERENT IN FOLK RIDDLES IN LITERARY RIDDLES.
7. Zaripovich, R. D., Matchonboyevich, S. S. A., Aminbayevna, R. Z. S., & Zaripovna, R. R. N. (2025). Belief Systems of the Uzbek People: Shamans and Bakshis. *Journal of Chemical Health Risks*, 15(6), 3512.
8. Раджабова, Р. З. (2020). PROSE TALES AND THE INFLUENCE OF FOLK TALES ON THEIR WORK. *ФИЛОЛОГИЯ, ЛИНГВИСТИКА, ЖУРНАЛИСТИКА: АКТУАЛЬНЫЕ*, 9.
9. Rajabova, R. N. Z. (2020). A LITERARY RIDDLE FROM A FOLK RIDDLE. In *European Scientific Conference* (pp. 139-141).
10. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.
11. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
12. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of "The Missing Motherland") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
13. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шоҳсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.
14. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. (Feb. 2021), 679–683.
15. Davronova S. Eastern and western literary tradition in the modern uzbek novels //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9). – С. 33-34.
16. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.
17. DAVRONOVA S. TARİHİ ROMANDA MUTASAVVIF BİLGİN SİMASI //DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I. – С. 108.
18. Shohsanam D. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2016. – Т. 4. – №. 5. – С. 33-34.
19. Давронова Ш. Литературное влияние и творчество //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.
20. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016. – 2016.



21. Davronova S. КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА "ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АКС-САДОСИ") («ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ») //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
22. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.
23. Gaybulloeva D. S., Bakhtiyorova N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.
24. Davronova S., Kandimova I. CHARACTER CREATION SKILLS OF LUKMON BORIKHAN //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 30-34.
25. G'aybulloeva D. S. TILAK JO 'RA IJODIDA BADIY IFODA VA MAHORAT //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 2. – №. 20. – С. 212-218.
26. Davronova, S. (2024, May). TILAK JO 'RA SHE'RIYTINING O'ZIGA XOSLIGI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 4, pp. 181-191).
27. Davronova S. ABDUQAYUM YO 'LDOSH HIKOYALARIDA JAMIYAT VA INSON MUNOSABATLARI TALQINI //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 405-411.
28. G'aybulloeva D. S. ERKIN VOHIDOV IJODIDA MILLIYLIK IFODASI //Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology. – 2025. – Т. 2. – №. 5. – С. 96-101.
29. G'aybulloeva, Davronova Shohsanam. "ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA TABIAT VA INSONIY TUYG 'ULAR TALQINI." *Economics, management, and digital innovation in education: contemporary trends and approaches* 2.11 (2025): 87-94.
30. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016.–2016. – Т. 18.
31. Давронова Ш. Литературное влияние и творчество //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.
32. DAVRONOVA S. TARİHİ ROMANDA MUTASAVVIF BİLGİN SİMASI //DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I. – С. 108.
33. DAVRONOVA S. ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA SHOIRALAR IJODIGA MUNOSABAT IFODASI //FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA. – 2025. – №. 5. – С. 70.
34. Saidova, Nodira Mustakimovna. "G'AZAL TAHLILIGA GERMENEVTİK YONDASHUV." *Scientific progress* 4.2 (2023): 324-327.
35. Saidova, Nargiza Makhmudovna. "Features of the Development of the Saudi Realistic Story in the Second Half of the Twentieth Century." *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding* 8.4 (2021): 360-370.
36. Saidova, Nodira. "Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiyaga oid qarashlar." *Science and Education* 3.2 (2022): 562-567.





37. Nodira, Saidova. "PEOPLE'S ORAL CREATIVITY-INVALUABLE WEALTH." *Archive of Conferences*. 2021.
38. Nodira, Saidova. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TAFAKKURIDA MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYANING O'RNI." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 298-299.
39. Nodira, Saidova. "NAVOIY VA ILOHIYOT MUAMMOSI RAHIM VOHIDOV TALQINIDA." *Innovations in Technology and Science Education* 2.8 (2023): 681-689.
40. Mustakimovna, Saidova Nodira. "Immanent and contextual text analysis immanent and contextual out-of-class based approach designing literature lessons." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 188-192.
41. Mustakimovna, Saidova Nodira. "A HISTORY OF IMMANENT AND CONTEXTUAL APPROACHES." *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 2.12 (2022): 34-38.
42. Mustakimovna, Saidova Nodira. "MATN TAHLILIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING O'RNI." *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH* 2.18 (2022): 92-96.
43. Mustakimovna, Saidova Nodira. "SINF DAN TASHQARI ADABIYOT DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH." *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH* 2.18 (2022): 84-86.
44. Mustakimovna, Saidova Nodira. "O'QITUVCHI-AMALIYOTCHI TALABALARNING AMALIYOT JARAYONIDA IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARIDAN KENG FOYDALANISHI." (2022).
45. Mustakimovna, Saidova Nodira. "G'AFUR G'ULOM ASARLARINI IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARI ASOSIDA TAHLIL QILISH: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9. 09.025 Saidova Nodira Mustakimovna Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 9 (2022): 177-182.
46. Mustakimovna, SAIDOVA Nodira. "IMMANENT VA KONTEKSTLI YONDASHUV ASOSIDA SINF DAN TASHQARI ADABIYOT DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH JARAYONINING MAZMUNI." *EDAGOGIK AHORAT*: 94.
47. Саидова, Нодира Мустакимовна. "O'QITUVCHI-AMALIYOTCHI TALABALARNING AMALIYOT JARAYONIDA IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARIDAN KENG FOYDALANISHI: Saidova Nodira Mustakimovna, Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 5 (2022): 141-145.
48. H. Safarova, A crow, an owl, a sheep, a bird turned your flowers...:(On the example of the work of the poet Samandar Vahidov) Center for Scientific Publications (bukhdu. en).
49. H. Safarova, Theformation of musammat (octaves) in the literary environment of Bukhara (based on the poems of Samandar Vahidov) Center for Scientific Publications (bukhdu. en).8 (2021)





Date: 15 June 2026

50. H. Safarova, Navoi does not need a soul, but. Center for Scientific Publications (bukhdu. en).3 (2021) 7. A. Hamroyev, H. Jumayeva, E3S Web of Conferences 420. 10007 (2023)
51. H Safarova. The agony of missing the sun and heat. Center for Scientific Publications (bukhdu. en) 8(8) (2021)
52. H.O. Safarova. Parents double wings to the child. Indonesian Journal of Innovation Studies 18 (2021)
53. Okhunjonovna, S. H., Bakoevna, R. M., & Kadirovna, A. Z. (2023). Travelogues in The Literature of Bukhara at The End of The 19th and The Beginning of The 20th Century. Res Militaris. Social Science Journal/Res Militaris, 13(1), 2023-258.
54. Rajabova, M., Safarova, H., Amonova, Z., Shirinova, M., & Ibotova, M. (2024). The world of subjects in "Nazm Ul-Javahir" by Alisher Navai. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05023). EDP Sciences.
55. Safarova, H., Rajabova, M., Amonova, Z., Shirinova, M., & Maxmudova, R. (2024). Activity of Cholpan in the literary environment of Bukhara. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05036). EDP Sciences.
56. Amonova, Z., Rajabova, M., Safarova, H., Shirinova, M., & Akhrorova, Z. (2024). The teachings of Hurufism and Nasimi's poetic skills. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05037). EDP Sciences.
57. Amonova, Z., Rajabova, M., Safarova, H., Shirinova, M., & Akhrorova, Z. (2024). The teachings of Hurufism and Nasimi's poetic skills. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05037). EDP Sciences.
58. Rajabova, M., Amonova, Z., Qodirova, N., Rajabova, R., & Ibotova, M. (2024). Interpretations on ecological problems and their solution in the works of Abu Ali ibn Sino. In E3S Web of Conferences (Vol. 587, p. 02019). EDP Sciences.